

ARAB TILIDA MURAKKAB GAPLAR VA UNING UMUMIY GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Azizbek Isamutdinov,

Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi katta o’qituvchisi

Sa’dullayeva Munavvarxon,

Filologiya va tillarni o’qitish (arab tili) ta’lim yo’nalishi 4-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21215305>

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilidagi murakkab gaplarning grammatik tabiati, tuzilish xususiyatlari va sintaktik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda murakkab gaplarning bog’lovchili va bog’lovchisiz turlari, ergash gaplarning asosiy ko’rinishlari hamda ularning gap tarkibidagi o’rni yoritilgan. Shuningdek, arab tilida murakkab gaplarni hosil qiluvchi vositalar va ularning semantik munosabatlari misollar asosida izohlangan. Tadqiqot natijalari arab tili sintaksisini chuqurroq o’rganish hamda murakkab gaplarning grammatik xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: *murakkab gap, sintaksis, ergash gap, bosh gap, bog’lovchi, grammatik tuzilish, semantik munosabat, arab tili.*

Аннотация. В данной статье анализируются грамматическая природа, структурные особенности и синтаксические функции сложных предложений в арабском языке. Рассматриваются союзные и бессоюзные типы сложных предложений, основные виды придаточных предложений и их место в структуре высказывания. Особое внимание уделяется средствам образования сложных предложений и семантическим отношениям между их компонентами. Результаты исследования имеют важное значение для более глубокого изучения синтаксиса арабского языка и определения грамматических особенностей сложных предложений.

Ключевые слова: *сложное предложение, синтаксис, придаточное предложение, главное предложение, союз, грамматическая структура, семантические отношения, арабский язык.*

Annotation. This article examines the grammatical nature, structural features, and syntactic functions of complex sentences in the Arabic language. The study analyzes both syndetic and asyndetic types of complex sentences, the main categories of subordinate clauses, and their role within sentence structure. Special attention is paid to the linguistic means used to form complex sentences and the semantic relations between their components. The findings contribute to a deeper understanding of Arabic syntax and the grammatical characteristics of complex sentence constructions.

Keywords: *complex sentence, syntax, subordinate clause, main clause, conjunction, grammatical structure, semantic relation, Arabic language.*

Gap sintaktik satxning eng kichik birligidir. So’z birikmasi va boshqa sintaktik tushunchalar shu birlikning elementlaridir. Hozirgi kunga qadar gapning 300 dan ortiq ta’rifi mavjudligini qayd etib, professor A.Nurmonov til sistemasi xususida so’z yuritadi va so’z bir butun sifatida o’zaro munosabatda bo’lgan bir necha elementlar birligidan; gap bir butun sifatida o’zaro munosabatda bo’lgan bir necha elementlar birligidan iborat ekanini, bu

elementlar bir butun ichida butunga kirgunga qadar , shu elementga xos bo’lmagan yangi sifatga ham ega bo’lishi mumkinligini e’tirof etadi [5: 7].

Gap qismlari so’zdan iborat bo’lib, so’zda gap mazmunining ma’lum bir qismi aks etadi. Shuni aytish zarurki, gap doirasiga kirgunga qadar mustaqil bo’lgan so’z nutqda har doim ham mustaqil birlik sifatidagi mavqeini oqlashi shart emas.

V.M.Solnsevning ko’rsatishicha, har qanday tilda sistem-struktur qarash nuqtai nazaridan sistemadir [6: 7].

Sintaktik birliklar shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik bo’lishi bilan birga, har qaysi tomon o’z ichki tuzilish birliklariga ega. Sintaktik birliklar uchun xos bo’lgan mazmuniy va shakliy tuzilish birliklari o’rtasidagi munosabatni belgilash o’ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Gap bo’laklari to’liq ma’noli so’z va so’z birikmlari bilan ifodalangan gapning struktural-semantik komponentlari sanaladi [4: 584]. An’anaviy tilshunoslikda gap bo’laklari sintaktikstrukturani tashkil etgan elementlar asosida belgilanadi. Bunga ko’ra, asosan beshta gap bo’lagi haqida fikr yuritiladi va bu gap bo’laklarining shu sintaktik konstruktsiyani tashkil etishdagi roli asosida ikki darajaga ajratiladi. Gap bo’laklari tushunchasining yuzaga kelishida so’zga xos morfologik turkumlarning ularga tegishli sintaktik vazifalari doimiy ravishda bir xil bo’lavermasligi ham sabab bo’lganligi tabiiy. Dastlabki bo’linishda gapning o’zaro predikativlik munosabatida bo’lgan ikki bo’lak: ega va kesimga ajratiladi. Ega tarkibi fikr subyektiga, kesim tarkibi axborotning rejasi, ya’ni fikr predikatiga to’g’ri keladi. Bundan gap tarkibi uchun mantiqiy va kommunikativ funksiya birlamchi ekani kelib chiqadi. Gapda uning formal-grammatik tuzilishini belgilovchi Grammatik tayanch bo’lgan bosh bo’laklar ega va kesim muhim o’rin tutadi.

Kesim doirasida to’ldiruvchi va hol ajratiladi [1: 8]. To’ldiruvchi ko’proq fe’l bilan bog’lanadi. Hol gapning kuchsiz boshqariluvchi yoki boshqarilmaydigan bo’lagi hisoblanadi. Hol ma’noli elementlar fe’l-kesimning leksik ma’nosi bilan bog’langan vaziyatlarda to’ldiruvchi bilan hol o’rtasida aniq chegara bo’lmaydi. To’ldiruvchi bilan hol o’rtasidagi farq shundan iboratki, to’ldiruvchi fe’l valentligini to’ldirib, bir sintaktik o’rinni egallaydi. Fe’l boshqaruvchi sohasidan tashqarida bo’lgan hol esa bir necha avtonom sintaktik o’rinni egallaydi.

Gap bo’laklari orasida gap tarkibiga kirgan ot bilan atributiv aloqa asosida birikuvchi aniqlovchi ham katta ahamiyatga ega. Aniqlovchi gapda o’ziga xos kommunikativ va semantic imkoniyatga ega bo’lsa ham, tobe bo’lak sifatida gap bo’laklarining ichki strukturasiga kiradi. Vazifaviy jihatdan aniqlovchilar harakat va holatning belgisini anglatuvchi ravish holiga juda yaqin turadi.

An’anaviy tilshunoslikdagi gap bo’laklariga va ularning bosh hamda ikkinchi darajali bo’laklarning differensial belgisi ularning predikativ asosga kirish-kirishmasligi, predikativ asosni hosil qilishda qatnashish-qatnashmasligi hisoblanadi [5: 41].

Gap bo’laklari orasida gap tarkibiga kiruvchi otlar bilan atributiv aloqa orqali birikuvchi aniqlovchi ajratiladi. Aniqlovchi nominative funksiya bajarishda ishtirok etadi. Garchi aniqlovchi gapda o’ziga xos kommunikativ vazifa bajarsa va fe’l semantikasi bilan chambarchas bog’langan bo’lsa-da, tobe bo’lak sifatida ot bilan ifodalangan gap bo’lagining ichki strukturasiga kiradi.

Mazmuniy jihatdan yondashilganda, aniqlovchilar predmet belgisini bildirib, u bilan zich bog’langan holda, shu predmetning murakkab nomini hosil qiladi va aniqlovchi-aniqlanmish bir butun nom sifatida jumla tuzilishida ishtirok etadi. Predmet bildiruvchi

bo’lakka bog’langan va unga tobe bo’lgan bo’lak aniqlovchining gap qurilmasidagi o’rni o’ziga xos tarzda namoyon bo’ladi.

Tilshunoslar ega va kesimni bosh bo’laklar, qolgan bo’laklarni ikkinchi darajali bo’laklar deb hisoblaydilar. Bunda quyidagi asosga tayanadila: har bir gapdan ma’lum hukm anganiladi. Hukm doimo ikki elementning munosabatidan iborat. Demak, har qanday gapning struktur asosi, ega, predikatga mos keladigan kesimlardir. Qolgan gap bo’laklari shu ikki bo’laklarga bog’lanib, axborot hajmini kengaytiradi. Ega va kesim munosabatida ega kesimga nisbatan hokimdir.

Gapning markaziy birligi sifatida belgilangan kesimga nisbatan unga tobe gap bo’laklari ega, hol va to’ldiruvchi hisobga olinadi, so’ngra aniqlovchi ushbu bo’laklarning kengaytiruvchisi tarzida bo’lakning bo’lagi hisobalnadi.

Aniqlovchilar gap kesimi bilan to’g’ridan to’g’ri munosabatga kirishmaydi, balki kesimga bog’lanib kelayotgan bo’laklarning belgisini bildiradi va gap bo’laklarini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Aniqlovchi bilan aniqlanmish o’zaro zich sintaktik munosabatga kirishib, u bialn bir butun holda gapning muayyan bo’lagi vazifasini bajaradi.

“Arab tilida gap **“الجملة”** termini bilan ifodalanadi va u tugallangan fikrni bildiruvchi grammatik birlik hisoblanadi. Gap bir yoki bir necha so’zlardan tashkil topib, ma’lum mazmunni anglatadi hamda nutqning asosiy sintaktik birligi sifatida xizmat qiladi. Arab tilshunosligida gapning asosiy belgisi uning mustaqil fikr ifodalash xususiyatiga egaligidir [2: 96].

Arab tilida gaplar asosan ikki katta turga bo’linadi: ot gap (**الجملة الاسمية**); fe’l gap (**الجملة الفعلية**). Ot gap ot yoki olmosh bilan boshlanib, predmet yoki shaxsning holati, belgisi haqida ma’lumot beradi. Bunday gap odatda muftada (boshlovchi) va xabar (kesim)dan tashkil topadi. *Talaba tirishqoq* mazkur gapda **“الطالب”** muftada, **“مجتهد”** esa xabar vazifasida kelgan. Fe’l gap esa fe’l bilan boshlanadi va ish-harakatning bajarilishi haqida ma’lumot beradi. Uning asosiy tarkibi fe’l va ega hisoblanadi. Masalan: **كتب الطالب الدرس** (*Talaba darsni yozdi*) Bu gapda **“كتب”** fe’l, **“الطالب”** esa ish-harakat bajaruvchisi hisoblanadi.

Arab tilshunosligida gap quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Tugallangan fikrni ifodalaydi;
2. Grammatik jihatdan shakllangan bo’ladi;
3. Intonatsion tugallikka ega;
4. Bosh va ikkinchi darajali bo’laklardan tashkil topadi;
5. Sintaktik birlik sifatida nutqda mustaqil qo’llanadi.

Arab tilida gaplar sodda va murakkab gaplarga ham bo’linadi. Sodda gap bitta grammatik asosdan iborat bo’lsa, murakkab gap ikki yoki undan ortiq grammatik asosning o’zaro bog’lanishidan hosil bo’ladi. Murakkab gaplar arab tilida fikrni kengroq va aniqroq ifodalash imkonini beradi. Arab tilshunos olimlari gapni sintaksisning markaziy birligi sifatida baholab, uning grammatik va semantik xususiyatlarini chuqur tadqiq qilganlar. Ayniqsa, Sibavayh, Ibn Hishom kabi klassik grammatiklar arab tili sintaksisining rivojlanishiga katta hissa qo’shganlar”. Arab tili somiy-homiy tillar oilasining somiy tarmog’iga tegishlidir. Somiy tillar tarmog’i juda katta tarmoq hisoblanadi va olimlar tomonidan yahshi o’rganilgan. Qadimgi somiy tilida ashshurlar, ibriylar, finikiylar, oromeylar, va arablar gaplashganlar. Somiy tillar tarmog’i 4 guruhga bo’linar ekan, arab tili Janubiy Markaziy yoki Arabiston tili guruhiga kiradi. Qadimgi darajasini – qadimgi arab tili, o’rta va yangi darajasini – klassik va zamonaviy arab tili va ularning shevalari tashkil

etadi. Barcha somiy tillar tarmog’iga o’xshash umumiylik xosdir. Bu umumiylik olimlar tomonidan qiyosiy-tarixiy metod asosida aniqlanib quyidagi omillarda yaqqol ko’zga tashlanadi:

Fonetik umumiylik, barcha somiy tillarda unlilarning cho’ziq va qisqa ko’rinishlari mavjud. Undoshlarning uchlik guruhi mavjud. So’z hech qachon unli tovushdan boshlanmaydi. Shuningdek ko’sh undoshli boshlanish ham so’zlarda uchramaydi.

Arab tilidagi murakkab gaplar asosan ikki turga bo’linadi:

Bog’langan qo’shma gaplar (بالعطف المركبة الجمل) – sodda gaplar o’zaro teng munosabatda bo’lib, و (va), ف (shunda, so’ng), ثم (keyin), أو (yoki), لكن (ammo) kabi bog’lovchilar orqali birikadi. Misol: *الدرس وبدأ الجامعة إلى الطالب ذهب* – *Talaba universitetga bordi va dars boshlandi* [3: 98].

Ergashgan qo’shma gaplar (بالتبعية المركبة الجمل) – gaplardan biri bosh gap, ikkinchisi esa unga tobe bo’lgan ergash gap vazifasini bajaradi. Ergash gaplar aniqlovchi, to’ldiruvchi, hol, sabab, maqsad, shart va boshqa ma’noviy munosabatlarni ifodalaydi. Misol: *الذي الكتاب قرأت أمس اشتريته* – *Men kecha sotib olgan kitobni o’qidim*.

Arab tilidagi murakkab gaplarning asosiy grammatik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Gap qismlarining mazmuniy va sintaktik jihatdan o’zaro bog’langanligi;
- Bog’lovchilar va yordamchi vositalarning keng qo’llanilishi;
- Ergash gaplarning bosh gapga turli sintaktik munosabatlarda tobelanishi;
- Fe’l zamonlari va mayllarining o’zaro moslashuvi;
- Nisbiy olmoshlar (الذي، التي، الذي va boshqalar) yordamida aniqlovchi ergash gaplarning hosil qilinishi;
- Shart yuklamalari (إن، إذا، لو va boshqalar) orqali shart ergash gaplarning ifodalanishi.

Arab tilidagi murakkab gaplar til sintaksisining muhim qismi bo’lib, fikrni batafsil, aniq va mantiqiy ifodalashga xizmat qiladi. Ularning grammatik xususiyatlarini o’rganish arab tilining sintaktik tizimini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап тузилишида тўлдирувчи ва хол. Филол.ф.н... дис. автореферати. – Т., 1994.
2. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – Москва: Восточная литература РАН, 1998.
3. Ковалев А.А., Шарбатов Г.Ш. Учебник арабского языка. – Москва: Восточная литература РАН, 1998.
4. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.
5. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т., 1988.
6. Солнцев В.М. Грамматическая структура и актуальное членение предложения. – М., 1984.